



## LINGUCULTUROLOGICAL PROPERTIES OF PROVERBS

**Gulbahor Roziqova**

Associate Professor, Doctor of Philological Sciences

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

**Sohibjamol Allanova**

Master's student

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** linguoculturology, folkloristikca, proverb, method, culture, natsionalism.

**Received:** 28.06.22

**Accepted:** 30.06.22

**Published:** 02.07.22

**Abstract:** this article about proverbs' linguoculturologic peculiarity, proverbs' methodic problems, national and cultural uniqueness, proverbs' human's life significance

## MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSUYATLARI

**Gulbahor Roziqova**

Dotsent, Filologiya fanlari doktori

Farg'on'a davlat universiteti

Farg'on'a, O'zbekiston

**Sohibjamol Allanova**

magistrant

Farg'on'a davlat universiteti

Farg'on'a, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, folkloristika, maqol, uslub, madaniyat, milliylik

**Annotatsiya:** bu maqolada maqollarning linvokulturologik xususiyatlari, maqollarning uslubiy vazifalari, milliylik va madaniy xususiyatlari, ularning inson hayotidagi o'rni haqida so'z boradi.

## ЛИНГКУКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОСЛОВИЦ

**Гульбахор Розикова**

*доцент, доктор филологических наук*

*Ферганский государственный университет*

*Фергана, Узбекистан*

**Сохибжамол Аллонова**

*магистрант*

*Ферганский государственный университет*

*Фергана, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** лингвокультурология, фольклор, пословица, стиль культуры, начало национализма.

**Аннотация:** В статье рассматриваются особенности пословиц методологические функции национально-культурные особенности пословиц.

### KIRISH

Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib, “til madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki uning o‘zi madaniyatdan o‘sib chiqqanva uni ifodalaydigan vositadir” degan faraz qabul qilina boshladi.

Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o‘rinda turadi. Til birinchi navbatda, madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo‘yuvchi vosita bo‘lishiga yordam beradi. Keyingi yillarda til va madaniyat masalalarini linvokulturologiya fani tizmida atroflicha o‘rganish boshlandi.

V.V. Vorobevning yozishicha, “Bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo‘l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o‘rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagiga jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tarbiyasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta’limni bilib olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta’minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Demak lingvokulturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi va ta’sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandir.[1, 10]

### ASOSIY QISM

Til va madaniyatning bog‘liqligi, madaniyatning tilda aks etishi muammo bilan bog‘liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardagina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V. Vorobyov, N.V. Teliya, V.A. Maslovalarning ishlari xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida ham bu yo‘nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi madaniyatning tilda aks etishi kabi

qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish” N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab” N.Sayidrahimovaning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari”nomli maqolalarini belgilash mumkin.

Keyingi yillarda lingvokulturologiyaga bag‘ishlangan ishlar ko‘payib bormoqda. N.D.Arutyunovning “Til va inson olami” tadqiqiqoti turli davrlar va turli xalqlarga tegishli universal terminlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. (1999) V.N.Teliya va uning maktabi vakillari esa iboralarni o‘rgandi,bundan maqsad esa ularning milliy –madaniy ko‘chma ma’nolarini tavsiflash va mentalitetning xarakterlovchi qirralarini oolib berishdir.

Nursulton Shayxislomov “Linvokulturologiyaning fanlar sistemasidagi maqomi” maqolasida lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda V.Fon. Gumbold o‘zining “Tilning tuzilishi va insoniyat ma’naviy rivojiga ta’siri kitobi bilan tamal toshi qo‘yilganligini aytib o‘tgan.

V.fon.Gumbold “tilning o‘ziga xos xususiyatlari millatning o‘zligiga ta’sir qiladi,,Shuning uchun tilni chuqur o‘rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog‘lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak”.[6, 222]

Til va madaniyat bir – biri bilan chambarchas bog‘liq .Tilning shalklanishida folkoristikaning o‘rni beqiyosdir. Folkoristikaning qadimgi turi bu maqollardir. Maqollarda xalqning turmush tarzi, mehnat faoliyati,shaxs tarbiyasi, an’ana va qadriyatlar o‘z ifodasini topadi.

M.Qoshg‘ariy XI asrdayoq turkiy xalqlarning hikmatli iboralaridan juda katta qismini o‘zining “Devon” iga kiritib ,ularni qanday vaziyatda, qaysi mazmunda qo‘llanishini arab tilida izohlagan edi “Devonu lug‘otit turk”da xalq og‘zaki ijodiga oid 300 dan ortiq she’riy parchalar, 291 ta maqol va matallar keltiriladi.[7, 924]

Maqollar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o‘rganilgan, ularni tilshunoslikda, ya’ni linvokulturologiyada o‘rganish endi yo‘lga qo‘yilmoqda. Pragmatik nuqtayi nazaridan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, maqolda kesatish,yupatish, ogohlantirish kabi ma’nolar ifodalanishi mumkin. Biroq har qanday maqol linvokulturologik tadqiqotning predmeti bo‘lavermaydi.Bunda har bir xalqning etnosi, tarixi, madaniyati chambarchas bog‘liq maqollarni o‘rganish lozim.

Maqollar tarix, kelajak, yoshlik, qarilik, baxt, ilm, taqdir hattoki ilmiy koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarning qisqa va mazmundor aks ettiradi.

Maqollar, albatta, uslubiy vazifa bajaradi. Maqollar publisistikada, ilmiy –ommabop matnlarda va ayniqsa, badiiy asarlarda keng qo‘llaniladi Olima Bibish Jo‘rayeva maqollarning

uslubiy vazifalari haqida gapirganda: maqollarning “uslubiy vazifalari xilma -xil” va rang – barangdir, ularning ayrimlari “tabiiy “bo‘lib maqollarning ichki tabiatidan kelib chiqadi. Qolganlari esa individual xarakterga ega bo‘lib, u yoki bu so‘z san’atkorining estetik maqsadi, xohish irodasi, til vositalaridan foydalanishdagi mahorati bilan aloqadordir. Shulardan birinchisi maqollarning lisoniy (izual) uslubiy vazifalari deb, keyingilarini esa nutqiy (okkazional) uslubiy vazifalari deb nomlash mumkin.[4, 16]

Maqollarning uzual uslubiy vazifalari maqollar uchun doimiy bo‘lib, ularning ichki tabiatidan kelib chiqadi va har qanday matnda ham real vazifa bajaradi.

“Telba qulog‘iga pand –quyun oyog‘iga band”. Odamiylik mulki asarida qo‘llangan maqol orqali avvaldagagi rivoyatdan hukm chiqarish, ularga salbiy yoki ijobjiy baho berish vazifasini ham bajargan.

Maqollarning o‘z o‘rnida ishlatilishi fikrni aniq to‘la ifodalashga imkon yaratadi. TohirMalikning “Odamiylik mulki” asrarida: Abdurahmon Jomiy bunday deydilar:

“Quloqdan dilingga gar kirmasa nur

Sichqon kavagidan ne farqi bo‘lur ?”

Yuqoridagi kontekstning dalili sifatida xalqimizda “Gapni gapir uqqanga –jonne jonga suqqanga” maqoli keltirilgan. Bundagi maqol ijtimoiy munosabatlarning ixcham va lo‘nda ifodasini aks etirgan.

Maqollarning okkozional uslubiy vazifalari bunda maqollarning izual qo‘llanishidan farqli ravishda ,faqatgina muayyan matnlardagina ro‘yobga chiqadi.

Bunda maqollar sarlavha vazifasini bajaradi. O.Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa...”, Shuhratning “Oltin zanglamas”, O’.Hoshimovning “Nur borki soya bor” romanlari maqollar bilan nomlangan.[4, 17-18]

T.Malikning” Odamiylik mulki ”asarida “Tilingni avayla , omondir boshing”, ”Nafsim mening balodir ”,”Toqatliga tog‘lar egar boshini”,”Tuhmat tosh yoradi”,”Kamtarga kamol manmanga zavol”, ”Qo‘sning yomon bo‘lsa”,”Bemehr qarindoshdan mehr bilgan yot yaxshi” (Odamiylik mulki 935-bet) maqollar asar fasllari uchun sarlavha vazifasini bajargan.

Maqollar tarkibidagi so‘zlar, maqollar tarkibidan boshqa paytlarda aynan shu shaklda uchramaydi. Shuning o‘zi maqollarning shunchaki til birligi emas ,balki kichik hajmli badiiy asar, nutq birligi ekanligiga ham dalolat beradi.Maqollar bilamizki, davr, madaniyat bilan bog‘liq tushunchalarni ham ifodalaydi. Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san’at ,tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarini o‘rgansa ,tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzaraasiningmental modellari sifatida aks ettiruvchi dunyoqarashni ifodalaydi.

Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy holatda bo‘lgan ham til, ham madaniyat hisoblandi

Madaniyat lotincha so‘zdan olingan olingan bo‘lib,” ishlov berish, tarbiyalash, rivojlanish „hurmat qilish” degan ma’nolarni ifodalaydi. XVIII asrdan boshlab, “madaniyat “barcha narsa va hodisalarga, ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ishlatila boshladi. “Madaniyat” atamasining fan va amaliyotning turli sohalarida 500dan ortiq variantda ishlatilishi mumkin [5, 222].

Madaniyatning ikki turi o‘rganiladi .Bular: 1) moddiy madaniyat ; 2) ma’naviy madaniyat; Moddiy madaniyat inson ehtiyojlarini qondiruvchi barcha ishlab chiqaruvchi vositalar jamlanmasi bo‘lsa , ma’naviy madaniyat qamrovi juda katta qamrovli vosita sanaladi,bunga ijtimoiy ongning barcha shakllarini, ya’ni falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, qarashlar,maorif, ta’lim tarbiya maktab, xalq ma’naviy ijodiyotining barcha turlarini qamrab oladi. Ma’naviy madaniyat urf –odat, marosim va milliy qadriyat, xalq ijodi bilan chambarchas bog‘liq. Maqollarda ham bu o‘z isbotini topgan .

“Odamiylik mulki” asarida muallif mehmono‘stlik sifatlarini sanash davomida o‘zbek to‘ylari va undagi madaniy belgilarni e’tiborga oladi. Har qanday yig‘inda ham o‘zini tuta olish,mehmon bo‘lgan joyda kishilar orasida o‘zini hirs va yoqimsizlik bilan taom yemaslik uchun mehmon o‘z uyida biroz taomlanib borgani yaxshi.”To‘yga borsang- to‘yib bor, eski to‘ning –kiyib bor ”maqolining ma’nosи ayni shundaydir.

Bu maqolda madaniyat belgisini bildiruvchi ikki leksemadan foydalanilgan. To‘y va to‘n leksemalaridir. To‘y leksemasi har bir xalq uchun rishtalarni bog‘lovchi vositalardir. Alohidalik bildirushi esa o‘zbek xalqining o‘g‘il bolalar uchun sunnat to‘yi qilishidir.

To‘n- 1. Oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki kiyim, chopon. Kimxob to‘n,zarvaraq to‘n. Olacha to‘n. Banoras to‘n. To‘nini kiyib, belini mahkam tang‘ib uydan chiqdi. S.Siyoyev, Avaz. Xosiyat buvi bo‘lsa kechasi-yu kunduzi to‘n tikardi. S.Zunnova Gulxan.

2. ko‘chma Po‘st,qobiq. Qovunning to‘ni To‘ni ko‘k qovun.
3. ko‘chma Libos Bahor keldi elimga, Yashil to‘n kiydi dala I.Muslim, Sening sovg‘ang. [2, 300]

To‘n leksemasi turkiy xalqlar uchun milliylik belgisidir. Bunday maqollarni ko‘plab keltirish mumkin. “Mehmon kelsa pastga tush, Palov bermoq ahdga tush”, “Arafa kuni yolg‘on gapirganing, Nomoz kuni yuzi qora kabilar. Bu yerdagi Palov, arafa, nomoz leksemalari asosida ham milliylik aks etgan.

Palov-forscha “asosiy masalliq go‘sht va guruch, sabzidan tayyorlandigan qovurib, qaynatib damlanadigan quyuq ovqat turi; osh”. No‘xatli osh. Mayizli palov Xotinlar palovni

damlagan vaqtida boy kelib qoldi. Oybek, Tanlangan asarlar. Nigor oyim spool laganda palov keltirib, hammalari birga oshga o‘ltirdilar. A.Qodiriy Mehrobdan chayon.[2, 135]

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, linvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqotining yangi sohasidir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasini ,ta’siritilda o‘z aksini topgan xalq madaniyatining ko‘rinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiyaning asosiy obyekti sifatida “til va madniyatning o‘zaro aloqaga kirishgan vaqtdagi o‘zaro bog‘liqligi va bu munosabatning bir butun sistema holatida talqin qilinishi “fanning predmeti esa” jamiyat turmushning til kommunikatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan va madaniy qadriyatlarga asoslanganligidadir”. Ayni yillarda lingvokulturologiya sohasi o‘zbek tishunosligida ham keng miqyosda linvokulturologik birliklarni: muqobilsiz leksika va lakunalar, mifologiyalashtirilgan til birliklari, tilning paremifologik fondi, tilning frazeologik fondi, o‘xshatishlar, ramzlar,tilning metaforalari va obrazlari,tilning statik qatlami, nutqiy muomala,nutq etiketi birliklari keng o‘rganish yo‘lga qo‘yilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik.- Toshkent, 2019.10-bet
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II tom .-M.,1981, 135- 300-bet
3. T.Malik. Odamiylik mulki. -Toshkent, 2019
4. Jo‘rayeva B. Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma’noviy uslubiy qo‘llanishi, avtorefarat-Samarqand.2002 ,17-18 -betlar
5. Ahmedova O. Lingvokulturologiya tilning madaniy fenomeni sifatida / / Science andaducation scientific journal may 2021 Page222
6. Shayxislomov N. Lingvokulturologiyaning fanlar sistemasidagi maqomi va uning etnolingvistika,sotsiolingvistika va etnopsixolingvistika bilan bog‘liqligi // Academic Research in Edecalional Sccinces Vol,1No,2 2020. Page 222.
7. Samadov S. O‘zbek xalq maqollarida differinsial semalarning ifodalanishi//Science andaducation scientific journal may 2021 Page 924
8. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
9. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov’s Story “Yanga”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.

10. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
11. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
12. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.
13. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
14. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. – P.33-39.
15. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lirycs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.
16. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
17. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
18. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.
19. Karimov, N. (2022). IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING ORIENTAL CULTURE AND HERITAGE. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.
20. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.
21. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.